

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” ASARIDA QUSHLAR
RAMZI VA UNING MA`NOLARI

Alijonova Nodiraxon Shavkatjon qizi

Farg`ona Davlat Universiteti

Filologia fakulteti talabasi.

ANNOTATSIYA..Ushbu moqola Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida qo`llangan qushlar ramzining badiy va falsafiy mohiyati yoritiladi. Asarda Hudhudning murshid sifatidagi mavqie, Bulbulning majaziy ishqqa mahliyo timsoli, Tovusning kibr va nafs ramzi, Qarg`aning umrparastlik bilan bog`liq obrazi hamda Toyqushning dunyoga ruju qo`yish kabi xususiyatlari tahlil qilinadi. Har bir qushning bahonasi yoki qo`rquvi insonning ruhiy zaifliklari, ma`naviy kamchiliklari va nafs bilan kurash jarayonini badiy ifoda etadi. Maqolada haqiqat sari intilish g`oyalari ilmiy asosda sharhlanadi.

Kalit so`zlar: Alisher Navoiy, “Lison ut-tayr”, tasavvuf, qushlar ramzi, Hudhud, Bulbul, Tovus, Qarg`a, Toyqush, Simurg`, ruhiy kamolot, ilohiy ishq, tasavvufiy talqin.

KIRISH

Alisher Navoiy Sharq mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi bo`lib, uning ijodi nafaqat badiiy yuksakligi, balki chuqur falsafiy va tasavvufiy mazmuni bilan ham ajralib turadi. Shoir o`z asarlarida inson ma`naviy kamoloti, nafs bilan kurash, ilohiy ishq va haqiqatni anglash masalalarini ramziy obrazlar orqali yoritishga alohida e`tibor qaratgan. Ana shunday yuksak ma`naviy-falsafiy ruhda yaratilgan asarlardan biri “Lison ut -tayr” dostonidir.

ASOSIY QISIM

“Lison ut- tayr” dostoni tasavvuf adabiyotining eng muhim g`oyalarini mujassam etgan bo`lib, u Farididdin Attorning “Mantiq ut -tayyr” asariga ijodiy javob sifatida yaratilgan. Biroq Navoiy mazkur asarni oddiy taqlid darajasida emas, balki

o`ziga xos badiiy uslub, milliy ruh va teran falsafiy tafakkur asosida qayta talqin etadi. Doston orqali shoir insonning ichki dunyosi, uning ruhiy iztiroblari va haqiqat sari intilish yo`lini badiiy umumlashtirishga erishadi.

Asarda qushlar ramzi markaziy o`rin egallaydi. Har bir qush inson xarakteridagi muayyan sifat, illat yoki ruhiy holatni ifodalaydi. Ularning Simurg`ni izlab chiqishi esa insonning o`z “men” ni anglash, nafsdan xalos bo`lish va ilohiy kamolotga yetish yo`lidagi ramziy safarini anglatadi. Shu bois “Lison ut-tayr” dostoni nafaqat adabiy-badiiy asar, balki insonni o`zini tanishga chorlovchi ma`naviy-falsafiy manba sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Dostoning asosiy badiiy usuli -qushlar ramzi bo`lib, ular orqali insoniyatning turli ruhiy holatlari va kechinmalari talqin qilinadi. Har bir qushning o`z bahosi, qo`rquvi, qusuri yoki istagi uning ma`naviy zaifliklari ramzi sifatida tasvirlanadi.

Qushlar ramzining badiiy mohiyati.

Hudhud-yo`l ko`rsatuvchi murshid. Hudhud Navoiy dostonida ham ruhiy yo`l boshlovchi, murshid timsolida aks etadi. U qushlarni Simurg` sari boshlaydi va ularning ruhiy uyg`nishiga sababchi bo`ladi.

Bulbul-ishq ramzi. Bulbulning gulga bog`lanib qolishi-dunyoviy muhabbatga mahliyo bo`lgan inson timsoli. Navoiy bulbul orqali odamning majoziy ishqqa bog`lanib, haqiqiy ilohiy ishqdan uzoqlashib qolish holatini tanqid qiladi.

Tovus-kibr va o`zini ulug`lash. Tovus “Tangri husnimga tahsin aytishlari uchun yaratgan” deb safarga chiqmaslikka urinadi. Bu sifat insondagi kibr, nafs, o`zinimaqtash kabi illatlarning badiiy ko`rinishidir.

Qarg`a -uzoq umir istagi. Qarg`a umrining uzunligi bilan maqtanib, Simurg`ni izlashga ishtiyoq bildirmaydi. Bu esa dunyoni unitish ramzi sifatida talqin qilindi.

Toyqush-mol-dunyo bilan bandligi. Toyqushning boylikka ruju qo`yishi, xazinalar bilan mashg`ul bo`lishi insonning dunyoviy manfaatlarga ortiqcha berilib ketishining badiiy timsoli sifatida ishlatilgan.

Simurg`-ilohiy nur va mutloq kamolat timsolidir.Qushlarning simurg`ni izlab chiqishi esa insonning o`z nafsidan voz kechib,ma`naviy poklanish va haqiqat sari intilish yo`lini anglatadi.

Simurg`-dostondagi eng muhim ramzi obrazidir.Qushlarning uzoq va mashaqqatli safardan so`ng Simurg`ni o`zlarida topishi tasavvufiy “Vahdat ul -vujud” g`oyasini ifodalaydi.Ya`ni, haqiqat tashqarida emas, balki insonning o`z qalbida ekanini Navoiy ramziy tazda ko`rsatadi.

XULOSA

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni tasavvufiy adabiyotning yetuk namunasi bo`lib, unda ramziy obrazlar orqali insonning ma`naviy kamolot yo`li badiiy yuksakliklikda tasvirlangan. Asarda qushlar obrazi inson ruhiyatidagi turli holatlar, illatlar va ichki kechinmalarni ifodalovchi kuchli badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Har bir qushning Simurg`ni izlash yo`lidagi bahonasi insonning nafs bilan kurashidagi ichki to`siqlarni ochib beradi.

“Lison ut-tayr” dostonida qushlar ramzi markaziy o`rinda turadi. Har bir qushning bahonasi, qo`rquvi yoki istagi-insonning ma`naviy kamchiliklari ifodasidir.Alisher Navoiy ular orqali insonga o`zini tanish ,ruhiy poklanish va haqiqat sari intilish yo`lini ko`rsatadi. Dostonning badiiy-falsafiy mohiyati turkiy adabiyotda o`ziga xos maktab yaratib, tasavvuf adabiyotining eng go`zal namunalaridan biriga aylangan.

“Lison ut -tayr” dostoni nafaqat mumtoz adabiyotimizning nodir durdonasi, balki bugungi kunda ham insonni ma`naviy barkamollikka undovchi bebaho manba hisoblanadi. Asarning ramziy-falsafiy mazmuni o`quvchini o`z ruhiy olamiga nazar tashlashga,nafsini yengishga va haqiqat sari intilishga da`vat etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Alisher Navoiy. Lison ut -tayr.-Toshkent: fan nashriyoti,1989.
2. Alisher Navoiy.Mukammal asarlar to`plami.Toshken : fan, 1987-2003.
3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf va badiiy tafakkur.-Toshkent: Ma`naviyat,1996.
4. Abdulla Hayitmatov. Alisher Navoiy ijodiy merosi.-Toshkent: O`zbekiston,1991.

5. Karimov.I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent:Ma`naviyat,2008.
6. Rahmonov.V.O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi.-Toshkent: Fan,2004.